

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

## **Tabiiy fanlar va geografiya fakul'teti**

Geografiya yo'nalishi 3-bosqich 301-guruh talabasi  
Jo'rayeva Shaznozaning

Jahon mamlakatlari ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi fanidan

**AFRIKA MAKROMINTAQASI**

mavzusida tayyorlagan

# **REFERATI**



NAMANGAN 2015

# **MAVZU: AFRIKA MAKROMINTAQASI**

## ***Reja:***

- 1. Afrika makromintaqasining umumay tavsifi*
- 2. SHimoliy Afrika mintaqasi*
- 3. G'arbiy Afrika mintaqasi*
- 4. SHarqiy Afrika mintaqasi*
- 5. Markaziy Afrika mintaqasi*
- 6. Janubiy Afrika mintaqasi*

**1. Maydoni (Madagaskar va boshqa orollar bilan) – 30,3 mln. km<sup>2</sup>  
Aholisi – 973,3 mln kishidan ortiq (2008 yil, iyul)**

Afrika makromintaqasi – bugungi jahon xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, industrilashtirish darajasi, qishloq xo'jaligi (ziroatchilik va chorvachilik), transport tizimi bilan ta'minlanganligi, sog'liqni saqlash, ta'lim va fanning rivojlanishi jihatidan oxirgi o'rinda turadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida qazib beruvchi sanoat, tropik va subtropik dehqonchilik mahsulotlari yetkazib berishga ixtisoslashgan. Ayni paytda xo'jaligida oltin va olmos, uran va boksit, fosforit, kokos yong'og'i va palma yog'i, kofe va kakao ishlab chiqarish bo'yicha muhim o'rin tutadi.

Makromintaqaning iqtisodiy-geografik xususiyatlari:

- Boshqa makromintaqalarga nisbatan Afrikaning o'ziga xos iqtisodiy-geografik holati avvalo ekvator uning markazidan o'tib ikkiga bo'ladi, shimolga va janubga tomon ekvatorial, tropik va subtropik kengliklar joylashgan.

- Issiqlik Afrika hududiga yil davomida bir xil tushadi, yil shimol va janubda bir-biriga qarama-qarshi, shimoliy yarim sharda yoz bo'lsa, janubiy yarim sharda qish yoki aksincha bo'ladi. Yil davomida qirg'oqlarini yuvib turgan dengiz va okean suvlari muzlamaydi, kemachilik uchun g'oyat qulay.

- Gibraltar bo'g'oz (14 km, Yevropa va Afrikani bir-biridan ajratib turadi), Suvaysh kanali Qizil dengiz bilan O'rta dengizni bir-biri bilan tutashtiradi), Adan bo'g'oz xalqaro ahamiyatga ega. SHu bilan birga ko'pgina mamlakatlar bevosita dengizga chiqa olmaydi (Mali, Niger, CHad va boshq.).

- Afrika makromintaqasi dunyodagi eng yuqori tabiiy o'sish sur'atlari (yiliga 3%) va yuqori tug'ilish koeffitsientiga ega bo'lsada, o'lim sur'atlari ham kattaligi bilan ajralib turadi. Aholi yosh tarkibida 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i yuqori (45%). Makromintaqada aholi o'rtacha 1 km<sup>2</sup> ga 25 kishi to'g'ri keladi va g'oyat notekis joylashgan. Dengiz qirg'oq bo'yi, JAR, Zambiya, Zair va Zimbabve qirg'oq bo'yi rayonlarida 1 km<sup>2</sup>ga 50 kishidan 1000 kishiga qadar aholi to'g'ri kelsa, Sahroi Kabir, Kalaxari, Namib cho'llarida aholining zichligi 1 km<sup>2</sup>ga zo'rg'a 1 kishiga yetadi. Urbanizatsiya darajasi past, 30% atrofida. Afrikada 200

dan ortiq yirik shaharlar bo'lib, bu shaharlar atrofida aglomeratsiyalar shakllangan (Qohira, Iskandariya, Jazoir, Kasablanka, Addis-Abeba, Logos, Kinshaso, Yoxannesburg, Keyptaun, Durban va boshq.). Yirik shaharlar asosan iqtisodiy jihatdan bir muncha rivojlangan – JAR (59%), Misr (43%), Tunis (63%), Jazoir (63%) mamlakatlarda joylashgan bo'lib, shahar aholisi salmog'i nisbatan yuqori.

Lingvistik xususiyatiga ko'ra, afro-osiyo, kongo-kordofan, nil-sahroikabir va koysan til sinflari mavjud. Yevropoid irqiga mansub xalqlar Afrika aholisining 3%ni tashkil qiladi. Afrikada aholining 42% musulmon, 22% xristian va 36% mahalliy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiladi.

Afrika mamlakatlarida ichki va tashqi migratsiya xarakterli. Afrikadan tashqi migratsiya Yevropa mamlakatlariga, Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlariga (asosan Fors ko'rfazi), ichki migratsiya esa kambag'al mamlakatlardan nisbatan boy mamlakatlar Nigeriya, Kot-d-Ivuar, Marokko, Misr, Tanzaniya, Keniya, Zair va Zimbabvega yo'nalgandir.

Afrika siyosiy kartasida 55 ta mamlakat bo'lib, ularning ko'pchiligi rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi (1-ilova).

Mintaqada yagona iqtisodiy rivojlangan mamlakat Janubiy Afrika Respublikasidir. Mamlakatlarning ko'pchiligi boshqaruv shakliga ko'ra respublikadir. (Marokash, Lesato va Svazilend konstitutsion monarxiya), ma'muriy hududiy tuzilishga ko'ra ko'pchiligi (JAR va Nigeriya-Federativ) unitar davlatdir.

Afrika geosiyosiy va iqtisodiy holatiga ko'ra: SHimoliy, G'arbiy, Markaziy, SHarqiy va Janubiy Afrika mintaqalariga bo'linadi.

## **2. SHimoliy Afrika mintaqasi**

**Maydoni – 8531,8 ming km<sup>2</sup>**

**Aholisi – 197,2 mln kishi (2008 yil, iyul)**

SHimoliy Afrika mintaqasi<sup>1</sup> O'rta Yer dengizining janubiy qirg'oq bo'yida joylashgan bo'lib, aholisi asosan arablardan iborat, islom diniga e'tiqod qiladi. Iqtisodiy-geografik holati juda qulay (dengiz bo'yi, Janubiy Yevropa, Janubi-

---

<sup>1</sup> Магриб мамлакаatlari (арабча Фарб – Марокко, Тунис ва Жазоир) деб ҳам юритилади.

G'arbiy Osiyo mamlakatlariga yaqin qo'shniçilik holati, Atlantika okeani hamda Suvaysh kanali orqali Hind okeaniga chiqishi) bo'lib, boshqa mintaqalarga (G'arbiy, Markaziy, SHarqiy va Janubiy) nisbatan iqtisodiy va industrial rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotiga tortilish darajasi yuqori (neft, tabiiy gaz, fosforit va boshqlar eksporti bo'yicha).

Arid va ekstraarid hududlarda joylashgan, foydali qazilmalar (neft, tabiiy gaz, fosforit, rudali va noruda metallar, radiaktiv elementlar – uran) keng tarqalgan. Qishloq xo'jaligi imkoniyatlari chegaralangan. Atlas tog'li oblasti, SHimoli-G'arb, Misr va Sudanda – Nil vodiysi va del'tasi, Senegal daryosining o'ng qirg'og'i dehqonçilik uchun qulay. Yer osti suvlaridan (chorvachilikda) foydalaniladi.

**Aholisi.** Etnik tarkibi bir xil, arablardan iborat bo'lib-millatlardan – misr, jazoir, liviya, tunis, marokash millatlari shakllangan. Ayrim mamlakatlarda berber qabilalari saqlanib qolgan. Aholisining yillik tabiiy o'sishi 3%. Qishloq aholisi Sudan va Mavritaniyada yuqori (60%). Urbanizatsiya – Misr, Jazoir va Marokkoda (2/3 qisman shahar aholisi) rivojlangan, yirik millioner shaharlar shakllangan (Qohira, Iskandariya, Al-Jazoir, Tunis, Kasablanka va boshq.)

**Xo'jaligi.** SHimoliy Afrikada sanoat ishlab chiqarishi rivojlanib borayotganligiga qaramay, iqtisodiy faol aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band. Qishloq xo'jaligida ziroatchilik yetakchi soha hisoblanadi. Ishlov beriladigan maydonlar submintaqaning 4% hududini tashkil qiladi, holos. Asosan, oziq-ovqat ekinlari (bug'doy, sholi, tariq, makkajo'xori, shirin kartoshka va boshq.) va eksport ekinlari (xurmo, paxta (ingichka tolali), tsitrus mevalar, uzum, zaytun, sabzavot ekinlari, tabiiy o'simliklar – probka daraxti, gumboarabika daraxti va boshq) yetishtiriladi. CHorvachilik bo'sh rivojlangan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmançilik (qo'ychilik, tuyachilik, yirik shoxli hayvonlar) xarakterli. Mag'rib mamlakatlarida baliqçilik eksport yo'nalishida rivojlangan.

**Sanoati.** Sanoatda qazib beruvchi sanoat yetakchi sohadir. Bu tarmoqqa Liviya Jazoir va Mavritaniya eksportining 90% to'g'ri keladi.

Neft Jazoir, Liviya va Misrda, tabiiy gaz Jazoirda (yiliga 68 mlrd. m<sup>3</sup>) qazib chiqarilmoqda. Temir rudasi (Mavritaniya, Jazoir va Misr), fosforit (Marokash va Tunis – dunyoda qazilayotgan fosforitning 25% to'g'ri keladi), tsement xom ashyosi qazib chiqariladi. Neftni qayta ishlash sanoati (Misr, Liviya, Jazoir), neft-kimyo (Liviya va Jazoir), metallurgiya, mashinasozlik, to'qimachilik (ip-gazlama Misr, Sudan, Jazoir), oziq-ovqat (o'simlik yog'i, palma, yeryong'oq, zaytun, kofe, kakao, qand-shakar, vino, baliq konservalari) va mahalliy hunurmanchilik rivojlanib bormoqda.

**Transporti.** Mintaqada avtomobil, quvur, temir yo'l, dengiz va havo transporti rivojlangan.

**Tashqi iqtisodiy aloqalari.** Eksportda – neft, tabiiy gaz, fosforit, paxta, yeryong'oq, tsitrus mevalar, uzum vinosi, sabzavot va baliq konservalari, importda xilma - xil mashina va jihozlar, sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat asosiy o'rin tutadi. Turizm tez sur'atlar rivojlanmoqda.

### **3. G'arbiy Afrika mintaqasi**

**Maydoni – 6143,5 ming km<sup>2</sup>**

**Aholisi – 290,6 mln. kishi (2008 yil, iyul)**

G'arbiy Afrika mintaqasi iqtisodiy-geografik o'rni qulay, qirg'oq bo'yi holati (Mali, Burkino-Faso va Nigeriyadan tashqari), G'arbiy Yevropa, SHimoliy va Janubiy Afrika mamlakatlariga nisbatan yaqin joylashganligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Mintaqa shimoli qurg'oqchil semiarid Sahroi Kabir tabiiy mintaqasi, janubi savanna va tropik o'rmonlar qoldig'i bilan band bo'lib, yuqori namlik xarakterlidir. Daryolari sersuv (Valta), gidroresurslarga boy bo'lib, GESlar qurilgan. Yirik neft (Nigeriya), boksit (Gvineya-Bisau), temir rudasi, marganets, qalayi, uran, oltin, olmos, fosforit va boshqa qazilmalar mavjud.

**Aholisi.** Irqiy va etnik tarkibi murakkab (Evropoid va negroid irqi oraliq'ida). Bir xil xalqlar bir necha mamlakatga bo'linib qolgan. Tabiiy o'sish yuqori (3%). Aholi tarkibida yoshlar (14 yoshgacha bo'lganlar – 40%dan ortiqroq) salmog'i katta. Aholi g'oyat notekis joylashgan. Aholi zichligi qurg'oqchil hududlarda 1 km<sup>2</sup>ga 1 kishi, daryo vodiylari va qirg'oq bo'ylarida esa 100 kishidan ortadi. Qishloq aholisi Niger, Burkino-Faso va Beninda 90%dan ortiq. Urbanizatsiya –Nigeriya, Kot-d'Ivuar, Gana va Senegalda rivojlangan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilarning migratsisidan tashqari mavsumiy (hosil yig'ishda) migratsiya ham rivojlangan.

**Xo'jaligi.** Mintaqa iqtisodiyotining asosi qishloq xo'jaligidan iborat. Qazib beruvchi sanoat Nigeriya, Gvineya-Bisau, Liberiya va boshqa mamlakatlarda, ishlov beruvchi sanoat Nigeriya, Kat-d'Ivuar, Gana, Liberiya, Mali kabi mamlakatlarda rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida (qurg'oqchil shimoliy rayonlardan tashqari) dehqonchilik bosh soha. Oziq-ovqat ekinlari (sholi) va eksport ekinlari – kakao (dunyoda yetishtirilgan kakaoning 60% dan ortig'i va Afrikada yetishtiriladigan kakaoning 75% to'g'ri keladi), kofe, tabiiy kauchuk, yeryong'oq, palma yog'i, tropik mevalar yetishtiriladi.

Sanoatda qazib beruvchi sanoat - Nigeriya (neft va tabiiy gaz) Gvineya-Bisau (boksit), Liberiya (temir rudasi), Gana (marganets), Niger (uran), Senegal va Togo (fosforit), bir qator mamlakatlar esa olmos qazib chiqaradilar.

Ishlov beruvchi sanoatda oziq-ovqat, to'qimachilik, neftni qayta ishlash, metallurgiya (qora va rangli metallar) rivojlangan.

Transport tizimi bo'sh rivojlangan. Iqtisodiyotda avtotransport hissasi (yuk va yo'lovchi aylanmasida) yuqori. Temir yo'l qisqa bo'lib, tog'-kon sanoati va plantatsiya xo'jaliklari rivojlangan rayonlarni port shaharlari bilan bog'laydi. Yirik shaharlar – Dakar, Konakri, Obidjon, Kotonu, Logos va yangi port shaharlar barpo (Tema, San-Pedro, Bonni va boshq.) etilgan.

Tashqi savdo asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan amalga oshiriladi.

#### **4. SHarqiy Afrika mintaqasi**

**Maydoni – 6369 ming. km<sup>2</sup>**

**Aholisi – 301,6 mln. kishi (2008 yil, iyul)**

SHarqiy Afrika mintaqasi iqtisodiy-geografik holati Janubi-G'arbiy va Janubiy Osiyo hamda Yevropa mamlakatlari bilan dengiz yo'llari orqali (Uganda, Malavi, Zambianing dengizga chiqish imkoniyati yo'q) savdo aloqalari olib borish uchun qulay.

Mintaqaning shimoli va janubi bir-biridan farq qiladi. Efiopiyada tog' landshafti hukmron bo'lib, boshqa hududlarda ko'tarilgan platolar mavjud. Katta hudud qo'rg'oqchil (Efiopiya, Somali, Keniya va Tanzaniya), tuproq eroziyasi keng tarqalgan. O'rmonlar mintaqaning 1/5 qismini tashkil qiladi.

Suv resurslariga boy. Efiopiyada tog' daryolari va Zambezi havzasi Buyuk ko'llar - Uganda, Tanzaniya, Malavi va Keniya xo'jalik hayotida katta rol o'ynaydi. Ko'k Nil va Viktoriya Nili, Zambezi janubi istiqbolda gidroenergetikani rivojlantirish salohiyatlariga ega.

Foydali qazilmalardan mis rudasi (Zambiya), rangli va nodir metallar, ko'mir va boshqalarga boy.

**Aholisi.** Mintaqaning shimoli va janubi etnik tarkibiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. SHimolda Semit-xamit oilasiga kiruvchi, janubda bantu xalqlari, shuningdek, arablar, hindlar va yevropaliklar (asosan shaharlarda) yashaydi. Tabiiy o'sish mikromintaqa o'rtacha ko'rsatkichiga yaqin (2,6-3%). Aholi zichligi har 1 km<sup>2</sup> ga o'rtacha 20 kishidan ortadi. Migratsiya bir muncha bo'sh rivojlangan. Aholining 80-90% qishloq aholisidir. Urbanizatsiya jarayoni rivojlanib bormoqda.

**Xo'jaligi.** Mintaqa mamlakatlari ko'pchiligidan iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi asosiy o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi mintaqada YalMning 40-50% ni beradi. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik asosiy soha bo'lsada, bir qator mamlakatlarda chorvachilik (Efiopiya, Tanzaniya va Keniya) muhim o'rin tutadi.

Dehqonchilikda oziq-ovqat ekinlari (makkajo'xori, tariq, qo'noq, dukkakliklar, tropik ildizmevalar, banan, sabzavot), plantatsiya ekinlari (shakarqamish, sizal, banan, kofe, choy, tamaki, qalampirmunchoq va uning moyi, koritsa, vanil va boshq.) yetishtiriladi. Mintaqa eng ko'p uy hayvonlari to'plangan hudud. (50 mln.dan ortiq yirik shoxli va 80 mln.dan ortiq mayda shoxli hayvonlar, 3 mln. boshdan ortiq tuyalar bor).

**Sanoati.** Qazib beruvchi sanoat boshqa mintaqalarga nisbatan bo'sh rivojlangan. Zambiya tog'-sanoat mintaqasida rangli metallarni (mis, rux, qo'rg'oshin, kobalt va kadmiy) qazish va eritish yo'lga qo'yilgan. SHuningdek, bu sanoat tarmog'i qisman Tanzaniya va Keniyada taraqqiy etmoqda.

Ishlov beruvchi sanoatda rangli metallurgiyadan tashqari, oziq-ovqat va to'qimachilik, teri-poyabzal, tikuvchilik, neftni qayta ishlash, kimyo va qurilish materiallari (tsement) va mashinasozlikning ayrim sohalari rivojlanib bormoqda.

**Transporti.** Temir yo'l va avtomobil transporti ichki aloqalarni ham ta'minlay olmaydi. Garchi, keyingi yillarda quvur, havo transporti bir muncha rivojlanib borayotganligiga qaramay, mintaqada transport g'oyat murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar asosiy rol o'ynaydi. Eksportda xom ashyo, plantatsiya ekinlari, mashina va jihozlar, importda iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlari yetakchi o'rin tutadi. Tashqi savdo manfiy salbdoga ega.

Mintaqaning Keniya, Efiopiya, Tanzaniya, Zambiya, Uganda va boshqa mamlakatlaridagi ekzotik tabiati, tropik o'simliklar va hayvonot dunyosi (dunyoda mashhur Tanzaniyadagi Serengeti, Keniyadagi TSavo, Ugandadagi Ruvenzori, Zambiyadagi-Kaue, Efiopiyadagi – Avash va boshq.), tarixiy yodgorliklar (Efiopiya) yiliga 1 mln. ga yaqin xorijiy turistlarni jalb qiladi hamda iqtisodiyotga katta daromad keltiradi. Mintaqa mamlakatlari istiqbolda chet el turizmini rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirmoqda.

## **5. Markaziy Afrika mintaqasi**

**Maydoni – 6613 ming km<sup>2</sup>**

**Aholisi – 129,7 mln. kishi (2008 yil, iyul)**

Mintaqaning iqtisodiy-geografik holati Atlantika okeani qirg'oq bo'yi holati (yoki Kongo (Zair) daryosi orqali) mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. SHu bilan birga CHad, MAR va boshqa bir qator mamlakatlarning bevosita okeanga chiqish imkoniyati yo'qligi esa iqtisodiy qoloqlik sababi bo'lib qolmoqda.

Mintaqa shimoldan janubga 4,5 ming km.ga cho'zilgan (Sahroi Kabirdan Janubiy Afrika chala cho'llariga qadar). Namtropik o'rmonlarning yirik massivlari mavjud bo'lib (MAR janubiy qismi, Gabon, Kongo, Zair va Angolaning bir qismi), yer sharining o'ziga xos «o'pka»sidir. Mintaqaning shimoliy qismi kuchli kurg'oqchil bo'lsa, ekvatorial qismida namlik yuqori. Kongo (Zair) daryosi havzasi barcha mamlakatlarni bog'lovchi hamda yirik suv va energetika resurslari manbaidir. Mintaqaga Afrika gidroenergetika resurslarining 50% to'g'ri keladi. Foydali qazilmalarga juda boy bo'lib, XX asrning 70-yillarda shelf mintaqasida yirik neft va tabiiy gaz zahiralari topilgan.

**Aholisi.** Etnik tarkibi murakkab bo'lib, bantu tilida so'zlashuvchi negroid xalqlaridan iborat. CHekka hududlarida xausa va fulbe, tubu, pigmeylar yashaydi. Tabiiy o'sish 2,5%. Aholisining 80-90% qishloq xo'jaligi bilan band. Aholining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup>da 26,0 kishi bo'lsa, ayrim hududlarda (Zairning janubi-sharqi) 200 kishidan ortadi. Urbanizatsiya jarayoni g'oyat sust bo'lib, yirik millioner shaharlar kam (Kinshaso shahrida 3 mln. ga yaqin kishi istiqomat qiladi).

**Xo'jaligi.** Mintaqa iqtisodiyotining asosi qishloq xo'jaligidir. Iste'mol ziroatchiligi va plantatsiya xo'jaligi rivojlangan (o'rmonlarni yoqib dehqonchilik qilish amaliyoti bugungi kunda ham saqlanib qolgan). SHakarqamish, paxta, kofe, moyli ekinlar, tsitrus mevalar yetishtiriladi. CHorvachilik bo'sh rivojlangan (TSetse pashshasi tufayli). Oziq-ovqat yetishmaydi. Ayni paytda dengiz, daryo va ko'l baliqchiligi, o'rmon xo'jaligi taraqqiy etgan.

Sanoatda qazib beruvchi sanoat yetakchi o'rin tutadi va neft (Gabon va Angola), temir rudasi, marganets, uran, rangli va noyob metallar, olmos, boksit, kaliyli tuzlar va boshq. qazib chiqariladi.

Ishlov beruvchi sanoat neftni qayta ishlash, metallurgiya (ayniqsa, rangli metallurgiya), ayrim mashinasozlik mahsulotlari, kimyo, yengil va oziq-ovqat tarmoqlaridan iborat bo'lib, port shaharlar va poytaxtlarda to'plangan, yirik GES Kongo (Zair) daryosida barpo etilgan.

Mintaqa transport tizimini rivojlantirishdek murakkab muammo barcha mamlakatlar oldida turibdi. Istiqbolda temir yo'l, avtomobil va boshqa zamonaviy transport turlarini rivojlantirish orqali Markaziy Afrika ichki bozorini shakllantirish hamda milliy iqtisodiyotni taraqqiy ettirish mumkin.

Eksportda o'rmon mahsulotlari (faner va yog'och materiallar), to'qimachilik mahsulotlari, qand, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, alyuminiy, mis, oltin, radiaktiv elementlar, importda oziq-ovqat mahsulotlari, mashinasozlik va iste'mol tovarlari yetakchi o'rin tutadi. Tashqi savdo aloqalarining 75% iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga yo'nalgan.

## **6. Janubiy Afrika mintaqasi**

**Maydoni – 4165,8 ming km<sup>2</sup>**

**Aholisi – 54,8 mln. kishi (2008 yil, iyul)**

Janubiy Afrika mintaqasi mintaqqa iqtisodiy-geografik holati materik va orollarida joylashganligi, iqtisodiy rivojlangan Janubiy Afrika Respublikasining (JAR) chegaradoshligi hamda Atlantika va Hind okeani suvlariga bevosita chiqish imkoniyatlari qulayligi bilan ajralib turadi.

**Tabiiy sharoiti va resurslari.** Mintaqa materik qismidagi Namib cho'li, Kalaxari chala cho'li nisbatan qurg'oqchil (chorvachilik, ayniqsa, qorako'lchilik rivojlangan), materik sharqi intensiv dehqonchilikni rivojlantirish uchun qulay.

Foydali qazilmalarga g'oyat boy (toshko'mir, olmos, oltin, qora va rangli metallar, uran va boshq).

**Aholisi.** Etnik tarkibi deyarli bir xil bo'lib, negroid xalqlaridan (bantu) iborat bo'lsa-da, Namibiyada alohida koyson guruhiga kiruvchi bushmen va gotentot xalqlari yashaydi. SHuningdek, yevropaliklar va noafrikaliklar (Osiyoliklar) metislar ko'pchilikni tashkil qiladi. Tabiiy o'sish sur'atlari bir muncha yuqori, aholining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 119 kishi. Qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil qiladi. JARda urbanizatsiyalashgan mintaqalar shakllangan. Mintaqada vaqtinchalik mehnat migratsiyasi xarakterli bo'lib, asosan JARga yo'nalgan.

**Xo'jaligi.** Mintaqa iqtisodiyotining asosi qishloq xo'jaligidir. Ayni vaqtda, xo'jalikning iqtisodiy rivojlanishida tarmoq va hududiy tafovutlar mavjud.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqonchilik yetakchi soha hisoblanib, iste'mol yo'nalishidagi mayda tovar ishlab chiqaruvchilar va fermer xo'jaliklaridan (JAR) iborat va makkajo'xori, sholi yetishtiriladi. CHorvachilik Namibiya, Botsvanada (qo'ychilik-qorako'lchilik), JARda (qo'ychilik, sut-go'sht chorvachiligi), yevropaliklarga qarashli fermer xo'jaliklaridan iborat.

**Sanoati.** Mintaqa sanoatida qazib beruvchi sanoat JAR, Namibiya, Botsvana va Lesatoda rivojlangan (olmos, oltin, uran, temir rudasi, ko'mir va boshq). Ishlov beruvchi sanoat qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, (elektrotexnika va elektronika), kimyo, yengil oziq-ovqat sanoati (JAR) mis-nikel eritish (Botsvana) va boshqa tarmoqlar rivojlangan.

**Transporti.** Namibiya va Botsvanada temir yo'l, JARda temir yo'l, avtomobil, quvur va dengiz transporti, keyingi yillarda havo transporti rivojlanib borayotganligiga qaramay keskin muammolar ham mavjud.

**Tashqi savdo aloqalari** asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va Afrikadagi boshqa mamlakatlar bilan amalga oshiriladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartini va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1997.  
Hasanov I. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (ma'ruzalar matni). Toshkent. O'zMU. 2000.
2. Soliev A va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent 2003.
3. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. T., "O'qituvchi", 1994.
4. Ahmedov e.-O'zbekiston Respublikasi (o'zbek, ingliz tillarida), T., "O'zbekiston", 1998.
5. Akramov Z.M., Rafikov A.A. Proshloe, nastoyashee i budushee Aral'skogo morya. Tashkent. 1990.
6. Babushkin L.N., Kogay N.A., Zokirov SH.S. Agroklimaticheskie usloviya sel'skogo xozyaystva Uzbekistana. Tashkent. Mehnat, 1975.
7. Bogdanov O.P. Jivotnie Uzbekistana. Tashkent, O'qituvchi, 1975.
8. Djumaev T. Gori Uzbekistana. Priroda, xozyaystvo, otdix. Tashkent, Fan, 1989.
9. Zokirov SH.S. Landshaftshunoslik asoslari. Toshkent, Universitet, 1994.
10. Mo'minov A va boshqalar. O'zbekiston SSR tabiiy geografiyasi. Toshkent. O'qituvchi, 1984.
11. «2002-2004 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning xolati to'g'risida Milliy ma'ruza» T., 2005.